

XVII ASRDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA BO'LGAN DAVRDA MAKTAB, TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

Pirnazarova Asal

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada XVII-XVIII asrlar va XIX asr I yarmida Buxoro Qo'qon va Xivada ilm-fan ta'lif va tarbiya allomalarimizning ilm-fanga qo'shgan hissasi va ularning asarlari ayollar ta'limi ilk maktab va madrasalar rivoji undagi ta'lim tarbiya muhiti haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ilm-fan ta'lim madrasa maktab domla otinoyi she'riyat

XVII - XVIII asrlar va XIX asrning bиринчи yarmida Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarida ilm - fan taraqqiyoti.

XV asrning oxiri va XVI asr boshlarida Movorounnahrda 150 yil hukmronlik qilgan temuriylar sulolsai inqirozga uchradi. XV asr oxirida Shayboniyxon Utror qalasaini, Turkistonni so'ngra Buxoro, Samarqand, Farg'onan vodiysini, 1506 yili Hirotni bosib oldi. Eron shohi bilan urushda Shayboniyxon (1510) halok buldi. XVI asrda Ashtorxoniyilar hukmronligi o'rnatildi. O'zaro nizolar avj olib ketdi, natijada Movarouunahrda uchta xonlik, avvalo, Buxoro va Xorazm, XVIII asr oxiriga kelib Qo'qon xonligi qaror topdi.

Buxoro xoni Abdullaxon davrida boshqa davlatlar bilan har tomonlama aloqalar o'rnatishga erishildi. Jumladan Xindistonda shox Akbar, SHarqiyan Ovrupada Ivan Grozniy bilan do'stona munosabatlar o'rnatildi. Abdullaxon o'z atrofiga yozuvchi, shoir va olimlarni to'plab ularga homiylik qildi. SHoirlar orasida, Ayniqsa Mushfikiy o'z madxiyalari, lirik she'r va hajviyalari bilan shuhrat topdi. Abdullaxonning topshirig'i bilan u turli binolar uchun tarixlar bitdi. Abdullaxon 1001 ta rabot va sardoba, ko`plab madrasa, masjid, ko`prik, suv omborlari qurdirdi. U yozuvchi, shoir, olimlarni to`plab ularga homiylik qildi. Saroy muarrixlaridan Hofiz Tanish dalillar asosida "Abdullanoma" nomli tarixiy asarini yozdi.

Tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiy "Dastur al-iloy", Muhammad Yusuf Maxxol "Zubdat ul-kaxollin" asarlarini, shoir va adiblar Bobur, Solix, Majlisiy, Hasan Nisoriy, Binoiy, Vosifiy, Ubaydiylar ijod qildilar.

Shu davrlarda Muhammad Balxiyning "Subxonqulixonnomma", Mir-Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Muhammad Vali samarqandiyining 200 adib haqida ma'lumot beruvchi "Muzakkirul asxob" nomli asarlari, Sayido Nasafiyning Naqshbandiyga bag`ishlab yozgan qasidalari,

Sufi Olloyor va Boborahim Mashrabning she'rlari yuzaga keldi.

Bu davrda ko`proq adabiyot, tarix, me'morchilik, tasviriy san'at rivojlandi. Ayniqsa, Abulg`oziyning "Shajarai turk" asari mashhur edi. Abdulg`oziy 1645-1663 yillarda hukmronlik qilgan. xukmdor, olim, tarixchi va adib bo`lgan.

U Xorazmda ilm-fanni taraqqiy ettirish maqsadida o`z saroyiga binokorlar, tabib, shoir va boshqalarni to`playdi. Xonlik tarixini yaratishga kirishadi. "Shajarai taroqima" (1661), "Shajarai turk" (1664) va tabobatga oid "manofe' ul-inson" (1644) kabi asarlarni yaratadi. Xorazm tarixchilik mакtabiga asos soldi.

XVIII asrda yashab ijod etgan ma'rifatparvarlar orasida Sufi Olliyor ancha mashhur bo`lib, uning asarlari maktab va madrasalarda o`quv qo`llanmasi sifatida ishlatilgan. U fikxga oid "Siroj ul-ojizin", "Sabot ul-ojizin", "Murod ul-orifin", "Najot ul-tolibin" asarlarini yaratadi. "Sufi Olloyor" nomi bilan mashhur bo`lgan "Sabot ul-ojizin" asari maktablarda savod chiqarilishi bilan o`qitilar edi.

Bu davrda ijod etgan Fazliy Namongoniy, Mushfiqiy, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Nodira, Shermuhammad Munis va Ogahiy, Kiromiy, Mulla Shermuhammad, Akmal, Muhammad Aminxoja Kosoniy, Mavlono Nodirlar o`z zamonasining zabardast siymolaridan edilar. Ko`plab me'morchilik obidalari qurildi.

Bu davrda maktab va madrasalarda grammatika, xandasamantiq, qiroat, tafsir, shariat, hikmat, islom tarixi va aqidalariga oid nazariy bilimlar, ish yuritish, savdo - sotiqqa oid o`nlab ilmiy bilimlar, dunyoviy va diniy bilimlar o`rgatilar edi. barcha madrasalarda majburiy fan sifatida "Qur'on", "tafsir", "Odob as-solixin", "Sabot ul-ojizin", "Kimyoi saodat", "Xadis" kabilar o`qitilardi. O`qish muddati 15-20 yilni tashkil etgan. Masjid yonidagi maktablarda bolalarga 7 yil alifbe, abjad, Qur'on, chor kitob, Xoja Xofiz, Mirzo Bedildan savod o`rgatilgan.

O`zbek bolalari o`qiydigan maktablarda "Kitobi Fuzuliy", "Lisonut - tayr", "Devoni Alisher Navoiy", "Huvaydo", "Qissai devona Mashrab", "sabot ul-ojizin" kitoblari o`qitilgan. Savod chiqqandan barcha maktablarda Sufi Olloyor o`qitilgan. Lug`atshunoslik, tarixnavislik, she'riyat rivojlandi. Ko`plab asarlar fors, arab boshqa tillardan tarjima qilindi.

Ta'lrim - tarbiya jarayonida xotin qizlarga, ayollar tarbiyasiga katta e'tibor berildi. O`qimishli, ziyoli ayllar tomonidan maktablar tashkil qilindi va ular Xotinlar maktabi nomi bilan shuhrat qozondi. Madrasani bitirganlaridan mudarris, mutavali, qozi, imomlar, shuning bilan fan arboblari, adiblar, shoirlar ham yetishib chiqardi. CHunonchi: Boboraxim Mashrab, Muhammad Amin Kosoniy - Namangoniy, Sayido Namangoniy, SHavqiy Namagoniy, Sayido Nasafiy, Sufi Olloyor, Zebuniso, Dilshod - Barno, Muhammad Mir Olim Buxoriy, Abulg`ozzi Bahodirxon kabilar boshqa kasb egalarini to`pladi. Abo`lg`oziy ota-bobolarining quntsizliklari tufayli yozilmay qolib ketayotgan xonlik tarixini yaratishga qat'iy kirishdi va qobiliyatli xattotlarni bu ishga jalb etdi. Xorazmnning o'tmish madaniyati Abulg`oziyning katta ishtiyoq qiziqish uyg`otgan edi. Abo`lg`oziy "SHajarai taroqima" (1661), "SHajarai turk" (1664) va

tabobatga oid "Manofe' ul - inson" (1664) kabi nodir asarlar yozdi va Xorazm tarixchilik maktabiga asos soldi.

Abo'lq'oziy asarlari SHarq tarixchilarining - olimlarininggina emas balki, 1880 yillardan boshlab rus va G'arbiy Ovrupa olimlarining ham diqqat e'tiborini o'ziga torta boshladi. Muallifning "SHajarai turk asri 1825 yilda Kozonda Rumyansev , 1854 yilda G.S. Sablukov, 1871 yil P.I.Demizonlar tomonidan , "SHajarai tarokima" asari esa 1898 va yillarda bir necha marotaba rus tilida nashr ettirildi.

O'zbekiston xududidagi xonlik va amirliklar davrida fan, adabiy san'at, ma'rifat bir muncha rivojlangan. Ko'proq xon saroylari doirasida ham diniy, ham dunyoviy adabiy asarlar yozilgan. O'zbek tilida yozilgan asarlar orasida muallifi xaligacha noma'lum "Tavorixi Go'zida" turkiy qabilalar tarixi va nomlari keng yoritiladi. Bu davrda boshqa ko'plab tarixiy, asarlar yaratilganki, biz ularni o'rganishimiz orqali o'tmishni to'g'ri tasavvur qila olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Jumladan bu paytda Muhammad YOqubning "Gulshan ul-muluk", Muhammad Olimning "Tarixi amir Nasrullo", Mulla Ibodulla va Mulla Muhammi SHariflarning "Tarixi amir Xaydar", Muhammad Xaqimxon Turam "Muntaxabut tavorix", Mulla Avazifa Muhammadning "Tavern jaxonnumoyi", Mulla Niyoziy Muhammadning "Tarixi SHoxruh Abduraxmon Tolening "Abo'l Fayzxon tarixi", Muhammad Vafo Kirmoniyning "Tuxfa xoniy" kabi asarlari diqqatga loyiqdirdi.

XVIII asrda yashab ijod etgan ma'rifatparvarlar orasida So'fi olloyor (asli ismi Olloxyor) anchagina mashhur bo'lib, uning asarlari maktab va madrasalarda o'quv qo'llanmasi sifatida keng foydalanilgan.

Sufi Olloyor fikriga oid "Siroj ul-ojizin", "Sabot ul-ojizin", "Murod ul-orifin", "Maxzan ul-orifin", "Najot ul-tolibin" asarlarini yaratdi. "Sufi olloyor" nomi bilan halq orasida mashhur bo'lgan "Sabot ul-ojizin" degan asar maktablarda savod chiqarilishi bilan o'qitilar edi. Unda islom dinining asosiy qoidalari, aqidalari bayon etilgandi. Ul insoniy fazilatlar badiiy hikmatlar hamda hikoyalari tarzida ifodalanadi. Kitobda ilgari surilgan masalalar oyatu xadislarga muvofiq yozilganligi namoyon bo'ladi. Asar fors va arab tilini bilmagan oddiy halq uchun mo'ljallangan. Bu uning muqaddimasidan ham ko'rinish turibdi. Unda Allox taoloni tanimoq bayonida", "alloh taolo ma'rifatining bayoni", "Allox taoloning sakkiz sifatining bayoni" dan so'ng iymonning, rishtalarning bayoni, payg'ambarlarga iymon keltirish bayonidan so'ng islom dinining asosiy qoidalari yuksak ahloqiy talablar, hikoyatlar, hikmatlar asosida bayon etilib beriladi. Masalan: "Kamtarinlik, haqida mav'iza", "Ta'madan tiyilish haqida", "YOmonlar suhabatidin qochib, yaxshilar suhabatinda bo'lmoqning bayoni", "Nafsi shum bayonida" , "Banda ahdida turmog'i bayonida", "YAxshi hamroh bayonida", "Xiyonatdin yirok bo'lmoq bayonida", "Javonmardlik nishoni" kabi boblar bunga misoldir.

Bu davrda maktab va madrasalarda grammatika, handasa, mantiq, roat, tafsir, shariat, hikmat, islom tarixi va aqidalariga oid ilmiy-nazariy bilimlar, ish yuritish,

huquqshunoslikka, savdo-sotiq ishlariga oid, meros va boylik, taqsimot va shu kabi boshqa o'nlab imliy bilimlar, dunyoviy hamda diniy bilimlar o'rgatilar edi. Barcha madrasalarda majburiy fan sifatida "Qur'on", "Tafsir", "Odob as-solixin",

"Maslak ul-muttakin", "Sabot ul-ojizin", "Komyoi saodat", "Xadis", kabilar o'qitilar edi. O'qish muddatti 15-20 yilni tashkil etgan. Masjid yonidagi maktabda bolalarga 7 yil alifbe, abjad, Qur'on, Farzi ayn, chor kitob, Xo'ja Xafiz, "Maslik ul-muttakin", Mirzo Bedildan savod o'rgatilgan.

O'zbek bolalari o'qiydigan maktablarda "Kitobi Fo'zuliy", "Lison ul-tayr", "Devoni Alisher Navoiy", "Xuvaydo", "Kissai Devona mashrab", So'fi olloyorning "Sabot ul-ojizin" kitobi o'qitilgan. Barcha maktablarda iboralarning savodi chiqarilgandan so'ng Sufi Olloyor o'qitilgan.

Ta'lism tarbiya jarayonida xotin-qizlarga, ayollar tarbiyasiga katta e'tibor berildi. O'qimishli, ma'rifatli, ziyoli ayollar tomonidan ko'plab maktablar tashkil etildi va u otinlar maktabi deb nomlandi.

Jahon Otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi.

Jahon Otin Uvaysiy (XVIII asrning 80-yillarida tug'ilib, 65 yoshlarida vafot etgan) Marg'ilon shahar CHilduxtaron mahallasida, Farg'ona tumani, Arsun qishlog'ida tug'ilib yashagan. Uning otasi Qaynar devona yoki Devonai Qalandar deb yuritilgan. (Uning Ismini Siddiqbobo deb ataganlar). Onasining nomi esa CHinnibibi edi. Ularning Uvaysiydan katta Oxunjon hofiz degan o'g'li ham bor edi. Qaynar devona Kocondan kelib, Marg'ilonda turg'un bo'lib qolgan. Dastlab Jaxonbibi ota-onasi va akasining ko'magida o'z-o'zicha mutolaaga beriladi. O'zbek, tojik mumtozlari, ayniqsa Jomiy, Fuzuliy asarlarini sevib o'qib, ulardan o'rganadi. Uvaysiy taxallusi bilan she'rlar mashq qila boshlaydi. U aruz vaznini hamda u bilan bog'langan muammo san'atini mukammal egallaydi. Uning otinlik faoliyati ham ancha vaqtli boshlanadi. U onasi Chinibibi o'qitadigan maktabda avval xalifalik qilgan, keyin o'zi qizlarni o'qitgan. Nodira Uvaysiyni o'z himoyasiga oladi. Ikkala shoira egachi-singil tutinadilar. Nodira egachisiga Qo'qondan hovli-joy in'om qiladi. Uvaysiy Qo'qonda Nodiraning eng yaqin kishisi, suhbatdoshi, sirdoshi bo'lib qoladi. Halq orasida tobora uning obro'yi, shuhrati ortadi, Nodira sayohatga qayerga borsa, Uvaysiyni ham o'zi bilan birga olib boradi. Nodira bilan u Konibodom, Xo'jand, O'ratega, Toshkent, Andijon, O'sh va boshqa shaharlarda bo'ladi. Buxoro amiri Nasrullo 1842 yilda Qo'qon talon-toroj qilib, Nodirani vahshiyona o'ldirgandan keyin, Uvaysiy Marg'ilondan butunlay ketib qoladi va umrining oxirgacha u Qo'qonda yashaydi. Uvaysiyning muallimlik faoliyatini o'rganar ekanmiz, uning o'qitish usullari haqida, o'sha davrdagi qizlar maktabi, ularning mazmunida otinlarning o'rni haqida muayyan ma'lumotga ham ega bo'lamiz.

XIX asrda O'zbekistonda, umuman Markaziy Osiyoda ta'lism tarbiya muammolari bilan maxsus shug'ullanuvchi mutaxassislar, olimlar, mutafakkirlar

bo'limgan. Lekin davrning ilg'or kishilari shoir va mutafakkirlari o'z ma'rifiy qarashlari asosida ta'lim-tarbiyani rivojlantirganlar. SHubhasiz, ta'lim-tarbiyaning mohiyati, ijtimoiy roli, maqsad va vazifalari, tarbiyachining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni singari masalalar haqida u yoki bu shaklda o'z fikrini bildirmagan, chinakam tarbiyachi bo'lishi qiyin.

O'tmishdagi barcha sharq mutafakkir va shoirlari singari o'zbek otinlarining ham pedagogika nazariyasiga oid asarlari yo'q. Lekin ularning ko'pchiligidagi nazm iqtidorli bo'lganligi tufayli bizga meros qilib qoldirgan she'riy durdonalariga asoslangan holda ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlari, halqqa ma'rifiy tarqatish sohasidagi intilishlarini aniqlash mumkin. Bir so'z bilan aytganda, pedagogika ularning asarlariga singib ketgandir. Ana shunday ma'rifatparvar o'zbek ayollaridan biri, halqimiz orasida Uvaysiy taxallusi bilan mashhur bo'lgan shoira Jahon Otin Uvaysiydir. U 1796-97 yillarda onasi otinlik qilgan xususiy maktabda dastlab halifalik va keyinchalik mustaqil ravishda otinlik qilgan Jahon otin o'z maktabida ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos ilg'or usullarni qo'llashga harakat qilganligini ko'ramiz.

Avvalo, shuni ta'kidlash keraki, XIX asr sharoitida maktablarning aniq ta'lim-tizimi haqidagi gapirish bir oz qiyin. Bu davrda asosan maktablarning, ya'niy ta'lim muassasalarining quyidagicha boshlang'ich maktablar tuzilishiga ega ekanini ko'ramiz:

1. Maktablar:

A) o'g'il bolalar maktablari-o'g'il bolalarga diniy ta'lim-tarbiya beradigan boshlang'ich maktablar;

B) otinoyi maktablari-qiz bolalarga islom qoidalarini o'rgatadigan va boshlang'ich ta'lim beradigan maktablar;

V) madrasalar-o'g'il bolalarga diniy ta'lim beruvchi oliy ta'lim muassasalari;

Yuqorida sanab o'tilganta'lim o'choqlari (otinoyi maktablaridan tashqari) vaqt daromadlaridan kelgan mablag' hisobiga ta'minlanardi.

Qizlarga boshlang'ich diniy ta'lim berishradigan otinbibi maktablari esa asosan xususiy bo'lib, otinlarning uylarida tashkil qilinardi. Bunday maktablar muayyan bir o'quv rejasi va dasturiga ega emas edilar. O'quvchilar ham sinflarga bo'lib emas, balki bolalar o'qitiladigan kitoblarni o'zlashtirish darajasiga qarab guruhlarga bo'lib o'qitilardi. Domla yoki Otinoyi darsni berilgan vazifani o'qitib ko'rish va yangi topshiriq berishdan boshlar edi. Hech bir domla otinoyida o'ziga xos ishlar, umumiy o'quv darsligi yo bo'lmasa o'quv uslubi bo'lmasa edi. Otinoyi maktabida o'qitishning sifati otinoyining bilim darajasiga nihoyatda bog'liq ekanligini alohida ta'kidlamoqchimiz. Chunki, qizlar uchun mutlaqo notanish bo'lgan arab grafikasida o'qitish va yozishga o'rgatish nihoyatda qiyin sharoitda kechadi, maktablarni bitiruvchilar orasida ko'plab oqila va bilimdon qizlar yetishib chiqqanligi haqida

tarixda misollar ko'p.Uvaysiy Umarxon saroyida shoir sifatida she'r san'atidan, musiqadan shu tarzda muallimali qilgan.

Jaxon Otin Uvaysiy faoliyat ko'rsatgan qizlar maktabi ham ana shunday ibrat olsa arziyidigan bilim o'choqlaridan sanalgan. O'zining butun faoliyati davomida halqimiz orzu umidlarini ro'yobga chiqarishga harakatta qilgan Jahon Otin halqimizning oqila qizlarini tarbiyalash, go'zal hayotga erishishning birdan bir yo'li deb o'ylab, o'zining butun umrini yosh qizlarga ta'lim va tarbiya berishrishga bag'ishladi. O'zberishk ayollarining ma'naviy ozodligi ularning nazm dunyosiga kirib, baralla kuylashida muhim o'rin tutadi.

Jaxon otinning murabbiylik faoliyati nimadan ibrat bo'lganligiga bir misol va bu faoliyatning kichik bir lavxasi.

Uvaysiyning avlodlari shoiradan 4ta devon qolganini aytdilar. Uvaysiyning o'z qo'li bilan ko'chirgan devonlaridan ikkitasi yoshlik chog'ida yo'qolgan. Qolgan ikkitasi Andijonlik lo'li xotin olib ketib yo'qotgan. Ulardan ko'chirilgan uch nusxa qo'lyozma devon Andijon Davlat pedagogika instituti kutubxonasida saqlanmoqda.

Uvaysiy xaqiqiy do'stni «soxibi idrok» aqli raso bo'lishi lozimligini ta'kidlash bilan aqliy tarbiyaga e'tibor berishradi.U o'z asarida halqning ongi, tili, dilida yod bo'lib ketgan xikmatli so'zlar, maqollar, iboralardan keng foydalanadiki, Bular ham uning asarlarini tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.Jaxon otin Uvaysiy o'zbek pedagogikasi maktablari tarixida o'z o'rniga ega bo'lган buyuk shaxs.U o'zining maktabdorlik va ijodiy faoliyati bilan yoshlar ta'limida yuksak o'ringa ega. Uvaysiyning ma'rifiy faoliyatida uning ayollar savodxonligini oshirish, aqliy tarbiya, musiqa san'ati, qobiliyatli qizlar bilan ish usullari alohida o'ringga ega. U o'z davrining yosh tolibalariga hayotga muhabbat tuyg'ularini singdirib borgan, tez fikrlash, chiroylisozlash va boshqa tarbiyalash vositalari bilan bog'liq bo'lган chiston topishmoq usullarini yaratishni o'rgatgan. SHuning uchun ham Uvaysiy ijodiy merosini o'rganish va uni hozirgi davr maktablari ta'lim - tarbiya tizimi mazmuniga kiritish muhimdir.

Nodiraning tarbiyaga oid qarashlari:

Moxlaroyim - Nodira (1792-1842) Andijonda hukmdor oilasida tug'iladi. U 1808 yili Qo`qon hokimi Umarxon bilan turmush quradi. U madaniyat, adabiyot ahllariga rahnomalik qiladi. Shaharlardan olimlar, hattotlar, naqqoshlarni o`z xizmatiga oladi. Nodira o`zi ham o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan. Uning she'rlari, qarashlarida tarbiyaga oid fikrlari ham ko`zga tashlanadi. Uning fikricha inson barcha mavjudotlarning eng oliysi, eng ulug`idir. Inson hayot go`zalligidan bahramand bo`lmog`i lozim. Shoiraning tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g`oyalari adolat, insof, xalq manfaati muhim o'rinnegallaydi.Nodira hayotining tub mohiyatini yaxshilik binosini barpo etishdan iborat deb biladi. Inson o`zidan keyin yaxshilik bilan nom qoldirish kerak.U chinakam do`slikni targ`ib qiladi. shoira o`z she'rlarida barkamol insonni ulug`laydi.

Muhammad Sodiq Qoshg`ariyning "Odob as-solixin" asari va uning tarbiyaviy ahamiyati.

Muhammad Sodiq Qoshg`ariy (1740-1843) Qoshg`arda kambag`al dehqon oilasida tug`iladi. Uning qoldirgan merosidan pedagog - olim ekanligini bilib olamiz. Uning "Odob as-solixin" (Yaxshi kishilar odobi), "Zubdat al - masoyil" (Masalalarning qaymog`i), "Kumakdoshlarning durdonasi", "Xojalar tazkirasi" asarlari bizgacha yetib kelgan.

"Odob as-solixin" muqaddima, 7 bob hamda har bir bob 4 fasldan iborat. Asarda odob qoidalari: salomlashish va ruxsat surash, muloqot odobi, uplash va yo`l yurish, suhbatda o`zini tutish, er-xotin odobi, tozaliq qoidalari, mehmon kutish, ziyofat va ovqatlanish odobi, safar qoidalari bayon etiladi.

Masoyil» («Masalalarning qaymog`i») asarlari turkiy tilda yaratildi. U 5 marta: Toshkentda 1889, 1901 yillar va Istambulda 1891-92, 1986 yyillarda qayta nashr etilgan.

Mazkur asar mazmuni, nomidan ham ko`rinib turganidek, insonning hayoti davomida zarur xulq-odob qoidalariiga o`rgatish g`oyasi ilgari suriladi. Unda kundalik turmushimizda har bir yosh egallab olishi zarur bo`lgan zoxiri (tashqi) va botiniy (ichki) odob va ahloq qoidalari nimalardan iborat bo`lishi zarurligi va shunda bularning (tolib sidiqlarning) ham o`sib, barkamol inson darajasiga yetishishi ta`kidlanadi. Muhammad Qoshg`ariyning «Odob as-Solixin» asari muallifining o`zi ta`kidlaganidek, muqadima va 7 bobdan hamda har bir bob 4 fasldan iborat.

Har bir inson odobi zoxiri hamda odobi botiniyni bilib, unga amal qilishi zarurligi va u odob qoidalari mu`tabar kitoblardan jam etganligini. So`ng yuqorida ta`kidlaganimizdek, insonning barkamol bo`lib yetishishida kundalik turmushida zarur zoxiri va botiniy odob qoidalari: salomlashish va ruhsat so`rash, muloqat odobi, uplash va yo`l yurish, suhbat axlining o`zini to`tishi, er-xotin odobi, tozalik va ozodalik qoidalari, mehmon ko`tish, ziyofat va ovqatlanish odobi, safar qoidalari bayon etiladi.

Birinchi bob ruhsat so`rash va salomlashish, ko`rishish, qo`l olishish haqida bo`lib, u 4 fasldan iborat.

Ma'lumki, sharq halqlarida biror kimsa birorta uyga kirganda u yerga ruhsatsiz kirib boravermay, ma'lum urf-odat qoidalariга rioya qiladi. Ana shu qoidalaring eng muhimlari, Muhammad Sodiq Qoshg`ariy har bir odam kelganligini bildirish (eshikni qoqish yoki yo'talish), ovoz berilgandan so`ng ichkariga kirishga ruhsat so`rash va so`ng kirish kerakligi bayon etiladi.

Ikkinci faslda esa salomlashishning 12 odob qoidasi haqida fikr yuritiladi. SHunda salom berish va javobi masalasida hozirgi paytda ham yuz berayotgan munozarali fikrlarga nuqta qo`ygandek bo`ladi. Muallif aytishicha, adabi avval 2 mo'min kishi kelsalar xox oshno xox nooshno, salom berishgaylarki, salom berish sunnatdir, javobi farzi ayndir, deydi.

Mazkur bobda yana salomlashishidagi xatti harakattalar, jismonan zaif kishilar va salomlashish qoidalari, erkak va xotin-qizlarning salomlashish qoidalari, salom bermaslik va xotin-qizlarning salomlashish qoidalari, salom bermaslik va javob qaytarmaslik haqida ham hozirgi davr uchun muhim tavsiyalar mavjud.

Birinchi bobning uchunchi faslida berilgan muloqat (uchrashuv) odbiga oid tavsiyalar ham diqqatga sazovar. Bunda uchrashganda qo'l berib ko'rishish, lekin qo'l uchida emas, astoydil, lekin qo'lni silamay, ochiq yuz bilan ko'rishish bayon etiladi.

Ikkinchi bobda uxlamoq kiyim kiyish, yo'l yurish odoblari xaqida fikr yuritiladi. Masalan, uqlash oldidan eshiklarni mahkamlash, idishlarni og'zini yopish, o'rindagi ko'rpani qoqib yozish, o't, chiroqni o'chirish, uqlaydigan o'rinni yumshoq qilmaslik o'ng qo'liga bir oz suyanib yotish tavsiya etiladiki, bu qoidalarga rioya qilmaslik natijasida ko'plab noxush voqealar ro'y berishrganligi aytildi. Libos kiyish qodalari ham xulq- odob qoidalarinng tarkibiy qismi sanaladi. Bunda eng muhimlaridan kishi imkon darajasida kiyinishi lozimligi, qulayligi va yoshi, jinsiga, joyiga, fasliga mos bo'lishi, uni toza tutish , yaxshi libos kiyganda manmanlik qilmaslik, kiymaydigan ortiqcha liboslaridan muhtojlarga in'om qilish kabi tavsiyalar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Yo'l yurish qoidalari har bir inson uchun bo'lishi zarur bo'lgan qoidalalar bo'lib, bu xaqda quyidagilar: yo'lda yurganda me'yorida qadam tashlash, atrofga alanglamaslik, jamoat joylarida boshqalarga ozor berishrmaslik, keksalardan keyin yurish, o'ztozlar bilan birga ketayotganda ularning hurmatini saqlash, yo'lda hamkorlari bo'lsa ular bilan birga ketishlik, yo'lda esa biror kishi bilan uchrashib qolsa, salomlashib, tez o'tib ketish, agar zarur bo'lsa biror chekkaga chiqib so'zlashish, yo'lda og'iz suvi yoki balg'amni to'pursa yuzini berkitish, uni o'ng tomonga yoki oldiga emas, chap tomonga yoki orqasiga tashlash, yo'lda yordamga muxtojlarga yordam berishrish, kishilarga aziyat yetkazadigan narsalarni olib tashlash, mazlumlar g'am anduxlariga sherik bo'lib ularga yordam berish, yaxshi ishni ma'qullab, yomon ishdan qaytarish kabilar bayon etiladiki, Bularni bilish katta-yu kichikka birdek zarurdir.

Uchinchi bobda suhbatlashish odobi bayon etiladiki, bu odob qoidalariiga inson har bir daqiqada rioya etishi zarur.

Er kishi xotiniga yaxshi muomala qilishi, uni bexuda g'azablantirmasligi , oljanob bo'lishi, muruvvat ko'rsatishi, xavoyi nafs balosidan saqlanishi, agar ayol takkabur va jafo ko'rsatsa, unga avval nasihat qilib adab berishrish , yaxshi tomonga yuz tutsa avf etishi zarurligi bayon etiladi. Xotin esa erining ruhsatisiz hech joyga bormasligi va hech kimni uyga keltirmasligi, erining mol dunyosini sarf etmasligi, o'z mas'ulyatini bajarishi, eri xursand bo'lsa-xursand, g'amgin bo'lsa - g'amgin bo'lishi, erning topish-tutishiga qanoat qilish, er vafot etganda motam tutib marhumning ruhini

pok saqlash xaqida ibratli pandlar bayon etiladiki, bu narsalar hozirgi kunda ham dolzarbdir.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy «Odob as-solixin» asarida, kasal holini so'rash, ta'zim va musibat odoblari xaqida ham fikr yuritadi. Bu narsalarni har bir kishining bilishi muhimdir.

Bemor ham o'z navbatida kasalidan nolishi mumkinligini, og'ir dardga chalinganda o'ziga o'lim tilamasdan umr tilashi, og'irlashgani sezila boshlaganda gunohlaridan tavba qilib, qarzlarini ado etib, farzandlarini, qarindosh va do'stlaridan rozilik so'rashi va vasiyat qilishi hamda ularga sabr qanoat tilashi eng muhim qoidalar ekanligi takidlangan.

Asarda musibat odoblari haqida ham bayon etilganki, Bularni bilish, ayniqsa yoshlarga zarurdir. Asarda ziyofat, mehmondorchilik odobi xaqida ham ko'pgina ibratli

gaplar yozib qoldirilgan. Jumladan mehmondorchilik odobi xaqida quyidagilar ifodalanadi.

Asarda mehmoning ham sohibi xonodonga qiladigan odob qoidalari xaqida ham batatsil to'xtalib o'tilgan. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as-solixin» asari yoshlarning barkamol, ma'naviy yuksak yetuk axloqli bo'lishlarida katta ahamiyatga ega. Mazkur asar kundalik turmushimizda har kuni, har daqiqada bilish zarur bo'lgan turmush odobiga oid xulq- odob qoidalaring majmuidir. SHuning uchun ham SHarq pedagogikasi tarixida «Qobusnoma » kabi bu asar ham, o'z o'rni, o'z mavqeiga ega. Bu asarni bobma - bob o'rganish yosh avlodning ma'naviy kamol topishiga foydalaniladigan berish baho xazinadir, deyish joiz.

Muhammad Rizo Ogahiy, Munis Xorazmiylarning pedagogik qarashlari.

Muhammad Rizo Erniyozbek o`g`li Ogahiy (1809-) XIX asrning atoqli adibi va tarjimonidir. U yoshlida tog`asi Munisning tarbiyasida bo`ladi. Sunga Xivadagi madrasada o`qiydi. Fors, arab tillarini o`rganadi. U o`z faoliyati davomida Mirxondning "Ravzat us-safo", Muhammad Mahdixonning "Nodiranoma", Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ahmad Xiraviyning "Tabkoti Akbarshoxiy", Rizoqulxon Hidoyatning "Ravzat us-safon Nasriy" kabi tarixiy, Nizomiddin Ganjaviyning "Xaft paykar", Sa'diy Sheraziyning "Guliston", Dehlaviyning "Xasht bixisht", "Jomiyning "Bahoriston", Hiloliyning "Shohi gado", Vosifiyning "Badoye' ul-voqe'" kabi adabiy asarlarini, Kaykovusning "Qobusnoma", Voiz Koshifiyning "Axloqi Muxsiniy" kabi falsafiy - axloqiy asarlarini o`zbek tiliga tarjima qiladi.

Ogahiyning "Ta'viz ul-oshikin" (Oshiqlar tumori) nomli she'riy devonida yaxshilik, oljanoblik, poklik, to`g`rilik, himmat, shijoat, mardlik, saxovat, iffat, hayo, vafo, qanoat sifatlarni ulug`lanadi, nodonlik, munofiqlik, yolg`onchilik, xiyonat, haad, g`iybat, xasislik kabi illatlar qoralanadi. U yaxshilik qilishni insoniy burch deydi, xalqa yaxshilik qilish ma'naviy qashshoqlikning oldini oladi, deb biladi.

Olim inson qadr - qimmati uning oltinu - kumush bilan emas balki ilmu - hunari, kishilarga himmati va muhabbat bilan o`lchanadi. U ilm o`rganish, til bilishga, yoshlarni nafosat tarbiyasiga ham alohida e'tibor beradi. U davlat boshlig`iga xos bo`lgan fazilatlar haqida ham fikr bildiradi.

Munis Xorazmiy (1778 -) shoир, tarixchi, tarjimon va kalligraf olimdir. Maktab, madrasada o`qiydi. Mumtoz adabiyotni o`rganadi. Uning ijodida "Savodi ta'lim" asari ta'limiyl jihatdan muhim o`rin tutadi. Asarning 1 - qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik, kerakli o`quv anjomlari haqida gapiriladi. 2-qismida esa xat mashqi xususida amaliy ta'lim beriladi. Munis Xorazmiy o`z she'rlarida xalqning orzu istaklarini aks ettiradi, ma'rifatparvarlik g`oyalarini olg'a suradi, xalqni bilimli, adolatli bo`lishga da'vat etadi. U tarbiyaviy qarashlarida do'stlik, vafo masalasiga e'tibor beradi.

Xulosa qilib aytganda ma'rifatparvar bobolarimizning ilmiy merosi, pedagogik qarashlarida ta'lim-tarbiya xususan, do'stlik, vafo, adolat, shirinso'zlikni ulug'lagan. Xalqni savodli bo'lishga, ilm o'rganishga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Xodjayev „Pedagogika nazariyasi va tarixi“ Toshkent 2017
2. M. Axmedova „Umumiy Pedagogika“ Samarqand 2020
3. M.to'xtaxo'jayev „Pedagogika“ darslik Toshkent 2010
4. K.Qosnazarov A. Fazilov A.Tilegenov „Pedagogika“
5. K. Hoshimov S. Nishanova „Pedagogika tarixi“ darslik
6. K. Hoshimov S.Ochilov „O'zbek pedagogikasi va antologiyasi
7. Cyberleninka.ru sayti
8. Arxiv.uz sayti
9. Buxdu.uz sayti
10. Reja.TDPU sayti